International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

HAMZA ROMANLARIDA OBRAZLAR TIZIMI

Shirinova Sitora Xayrullo qizi
ToshDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida dunyo tamaddunida jiddiy siyosiy, ijtimoiy, madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu kabi o‘zgarishlar azaldan, o‘z dunyoqarashiga suyangan, ilmning barcha jabhalarida rivojlanishda bo‘lgan, ammo keyinchalik, Sho‘ro mustabid tuzumi ortidan yuksalishning har tomonidan ortda qola boshlagan Turkistonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Bu davr Turkiston tarixiga jadidchilikning maydonga kelishi va shakllanishi davri bo‘lib kirdi. Davr ziyoli jadidlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat kabi xalq manfaati yo’lida xizmat qilishni oz oldiga maqsad qilib qo’yganlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy edi. Ushbu maqolada shoir, pedagog, jamoat arbobi, o’zbek adabiyoti va san’atida sotsialistik realizmning asoschisi hisoblangan Hamza Hakimzoda Niyoziyning nasriy asarlari o’rganilishiga bo’lgan e’tibor va yangiliklar xususida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: nasr, roman, jadidchilik, millat, tarbiya, Vatan.

Badiiy obraz kitobxonga albatta, qandaydir estetik hissiyot uyg‘otishi kerak. Yozuvchi badiiy obraz orqali estetik idealini tasvirlaydi: ideal ijobiy obrazda bevosita, salbiy obrazda bilvosita ifodalanadi. Shunga ko‘ra, u yoki bu asarni o‘qiganimizda biz ham badiiy obraz faoliyatiga befarq qaray olmaymiz: ulardan yo zavqlanamiz yoki nafratlanamiz (Boboyev. T, 2002:50). Badiiy adabiyotda yaratilgan asarlar tom ma’noda yozuvchining qalbida asrab qo‘ygan idealini ifodalaydi. Chunki badiiy asar yozishga kirishar ekan har qanday yozuvchi o‘z oldiga fikr va maqsad tizginini umumlashtirgan holda bir butun reja asosida ishga kirishadi. Va bu orqali o’z kitobxoniga kecha, bugun va kelajakdagi hayotning tom ma’noda yutuq va kamchiliklarini ko’rsatishga, ulardagi yechom topmagan muammolarni ko’rsatishga harakat qiladi. Bugungi kunda Hamzaning bizgacha yetib kelgan romanlari “Yangi saodat” va “Uchrashuv” romanlari negizida ham davr ijtimoiy muammolariga bo’lgan munosabat ifodalangan desak, yanglishmagan bo’lamiz nazarimda. Hamza boshqa jadid namoyondalaridan farqli ravishda o’z davri va hatto bugungi kungacha eng ko’p ta’qiqqa olingan ijodkor desak mubolag’a bo’lmas. Bu uning ijodi bilangina bog’liq emas, albatta. Hamza nafaqat ijodiy, balki siyosiy faoliyati orqali ham o’zbek xalqining bugunidan xavotirlangan, ertasidan gumonda yashagan edi. Uni nafaqat sovet mustabid

tuzumi, balki o’z xalqi ichidan chiqqan xo’jalar ham ta’qib ostiga olgan edilar. Sababi Hamza o’zining dramatik sahna asarlarida, gazeta va jurnallarda chop etilgan she’rlarida va bundan tashqari nasriy asarlarida ham ayollarning haq-huquqlari poymol qilinayotgani, ularning ta’limi, jamiyatda muhim o’rin egallashi uchun rivojlanishi ma’lum aholi qatlami orasidagi guruhlar va oilalari tomonidan poymol qilinayotganligi, bundan tashqari xalqning yer-suv islohotiga bee’tiborligi, uyushqoq emasligi haqida fikrlarini ba’zan achchiq kulgu ostiga yashirib, ba’zan esa to’g’ridan to’g’ri e’lon qilar edi. Balki shuning uchundir u jiddiy ta’qib ostida yashadi, ijodining katta qismi yo’qotildi va oxir-oqibat o’zi ham o’zi sevgan xalqi tomonidan toshbo’ron qilindi. Bizgacha uning o’z davrida “ilk milliy roman” deb e’tirof etilgan “Yangi saodat” romani to’liq holda, “Uchrashuv” romani esa tugallanmagan holda yetib kelgan.

“Yangi saodat” romanini Hamza “Milliy roman” yozuvi bilan boshlab, unga

O’quv tahsili ilm ayla, maorif sharbatin yutgil,

Tilingni jahldan qutqor, g’ami millat bila o’tgil. (Hamza, 1988:399) epigrafini beradi. Bundan ko’rinadiki, asarning asosiy maqsadi va mazmuni insonning ilm olishi ahamiyati haqida ekan. Shundan so’ng Hamza “Ixtor” qismini boshlab, unda bugungi Turkiston xalqining ilmsizligi va bundan ko’rayotgan fojialari haqida o’z fikrlarini batafsil bayon etadi. Bu qismda ilmli va ilmsiz kishining hayoti taqqoslanadi ham.

Shundan so’ng Hamza roman mazmuni bilan o’quvchini tanishtiradi. Bunda

retrospektiv syujet unsurlaridan foydalanib, asarning bosh qahramoni Olimjonning o’tmishi va kelajagini taqqoslaydi. Olimjonning buvasi savdogar G’ozi boy-badavlat bo’lishiga qaramay, o’zining yakka-yu yagona farzandi Abduqahhorning ilm olishiga e’tibor bermagani va buning oqibatida otasining vafotidan so’ng na dunyoviy, na diniy ilmning mohiyatini tushunib yetmagan Abduqahhor otasidan qolgan boyliklarni qayday sarflashni bilmay, noto’g’ri yo’lga kirib ketgani, boyliklarini qimorda boy berib, oqibatda onasi Ruzvon, ayoli Maryam va ikki go’dak farzandi Olimjon va Xadichani tashlab ketgani, buning oqibati o’laroq, ham o’ziga ham o’z mas’uliyati ostida tutishi lozim bo’lgan oilasini ham faqirlik botqog’iga tashlab ketgani bayon qilinadi.

“Ушбу ўринда Ҳамзанинг «*Янги саодат*» ва *«Учрашув»* романлари ҳақидаги қарашларимизни ифодалашдан кўзланган мақсад уларга бўлган муносабатлар нафақат бугунги романчилик ютуқлари доирасида, балки мазкур асарлар яратилган даврдагидан ҳам, XX асрнинг 70-йилларидан ҳам сусайганлигидир. Бунинг боиси мазкур мавзуга тажрибали адабиётшуносларнинг қўл уришмаганлигида эмас, балки кечагина шўро даври адабиётининг *«ягона асосчиси»* сифатида тақдим қилиб келинган, ўша давр ҳукмрон мафкураси томонидан астойдил ҳимоя этилган Ҳамзанинг ниҳоятда мураккаб тақдири ва серқирра ижодини тамомила янгича асосларда ўрганиш анча қийин кечганлигидадир”. (I. Yoqubov, 2006:10)

Keyingi o’rinlarda Maryamning o’zi naqadar qiynalib, kun ko’rmay yashasada, yoshligida olgan bir ozgina eski ta’limning ahamiyati bugungi kun uchun nechog’li ahamiyatli ekanligi, o’zining kuni boshiga tushmasligini Xudodan so’rab, farzandlari ta’limini istab yashashi bayoni beriladi.

“Демак, Ғозибойнинг жоҳиллиги унинг дунё молига меҳр қўйгани ҳолда, фарзандини маърифатдан маҳрум қолдирганлигида кўринади. Акс ҳолда адиб орқасида мунис аёли Рузвон, йигирма беш ёшга тўлган ўғли Абдуқаҳҳор, оқила Марямдай келин, ширинданширин икки нафар невараси бор кишини юқоридаги каби «*бир ёдгорсиз, дунёдан беному нишон кетди»*, деб таърифламаган бўлар эди. Англашиладики, адибнинг назарида жоҳиллик нотўғри тарбия туфайли келгуси наслларга ўтувчи ва миллат истиқболи учун фалокатли иллат”. (I. Yoqubov, 2006:7)

Hayot albatta tasodiflarga boy. Shunday tasodiflarga duch kelgan Olimjon do’sti Ahmadjonning maktabini tomosha qilish bahonasida maktabga boradi va u yerda o’zining ilmga intilishi, ishtiyoqini namoyon qilib maktab muallimining nazariga tushadi. Unga maktabda shaxsan o’zi ta’lim berishini muallimdan eshitgan Olimjon uchun bu hayotdagi eng muvaffaqqiyatli yo’l ilm

yo’li ekanligini his qiladi. Asar davomida Maryam farzandining ta’limi uchun jonini jabborga berib harakat qiladi, Olmjon ham onasining umidlarini ro’yobga chiqaradi. Yoshi ulg’ayib, oq-qorani ajrata boshlagach, volidasining ilm olmaganligi, unga ta’lim uchun sharoit yaratib berilmaganligi ortida nechog’li og’ir hayot kechirayotganini ich-ichidan tahlil qilgan Olimjon singlisi Xadichaxonga ham o’zi ta’lim berib, ayollar ta’limini yoqlab chiqadi. Roman xotimasida Hamza Olimjon misolida ilm ortidan halol mol-davlatga erishish, o’zidan oldingi avlodga o’xshab emas, o’ziga o’xshab yashash, buning uchun esa ta’limning o’rni eng birinchi o’rinda ekanligini keltirib xulosa yashaydi. Olimjon ilmsiz insonlar singari g’ofillikka bo’yin egmaydi, hatto kun kelib o’z otasini oilasiga qaytarib, ota-onasi oldidagi farzandlik burchini bajarib, insoniylik vazifalarini bajaradi.

Hamzaning “Uchrashuv” romani ham mavzu va mazmun jihatidan “Yangi saodat” romani singari davr ijtimoiy muammolarini sevgi-muhabbat, ilm-ma’rifat yo’llarini ko’zlagan yoshlar orqali ochib berish uchun ko’zlangan. Garchi bizgacha asarning to’liq varianti yetib kelmagan bo’lsa-da, asar boshidan ko’rinadiki, Hamza romanning Yusuf va Abror obrazlari orqali ilmli va ilmsiz kishini o’zaro solishtirishni maqsad qiladi, Shirin obrazi orqali esa fikrimizcha ayollarga bo’lgan sevgi va hurmatning me’yori, jamiyatda ayollarning o’rnini yaratish muammolarini yoritmoqchi bo’ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Hamza o’zining dramatik asarlari, matbuotdagi chiqishlari orqali ko’proq tanilgan bo’lsa-da, bu uning nasrdagi ojizligini anglatmaydi. U o’zbek adabiyoti uchun ilk realizm namunalarini yaratdi, ilk milliy roman yozish tajribasini boshlab berdi. Uning nasriy asarlari deyarli saqlanib qolmagan bo’lsa-da, Hamza ijodi bilan tanish, uning ijodiga qiziqqan har bir o’quvchi nasrda ham uning adabiyotda o’z o’rniga ega bo’la olganligini yaxshi biladi. Buni yanada ochiqlash uchun esa bugungi va kelajak adabiyotshunoslaridan ilmiy tadqiqotlarida faollik talab etiladiki, bu harakatlar samarasi o’laroq, Hamzaning bizga, adabiyot olamiga ochilmagan yangi asarlari izlanishlar samarasi o’laroq dunyo yuzini ko’rsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002
2. Ҳамза. Тўла асарлар тўплами. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1988
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002.
4. Қаюмов. Л. Ҳамза. “Ёш гвардия”, 1973
5. Ёкубов. И. Ўзбек романи тадрижи. Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2006